

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KAMOLOTIDA TARBIIYA TAMOYILLARINING TUTGAN O‘RNI

*Axmadjonova Saodat Akmaljon qizi
ADPI. Maktabgacha ta’lim yo’nalishi
1-kurs talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar kamolotida tarbiya tamoyillarining tutgan o‘rni haqidagi fikrlar yoritilgan. Shu bilan maktabgacha yoshdagi bolalar kamolotida tarbiya tamoyillarining ma’lum tushunchalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar, kamolot, tarbiya, tamoyillar, shakllantirish, tarbiya maqsadining aniqligi, bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati, o‘z-o‘zini anglash, ixtiyoriylik, tarbiya qonuniyatlari.

Аннотация: В данной статье освещены представления о роли образовательных принципов в развитии детей дошкольного возраста. Таким образом, уточнены некоторые представления о принципах обучения в развитии детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дети дошкольного возраста, зрелость, воспитание, принципы, формирование, ясность образовательных целей, совместная деятельность детей и взрослых, самосознание, добровольность, закономерности воспитания.

Abstract: In this article, the ideas about the role of educational principles in the development of preschool children are highlighted. In this way, certain concepts of the principles of education in the development of children of preschool age have been clarified.

Key words: children of preschool age, maturity, education, principles, formation, clarity of educational goals, joint activities of children and adults, self-awareness, voluntariness, laws of education.

Inson tarbiyasi insonning o‘zi kabi qadimiy va keng qamrovlidir. Shu sababli, insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat va madaniyatni yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka etaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini izlaganlar.

Tarbiya jarayonida esa bolaning ongi, his tuyg‘ulari shakllanadi. Eng muhimi ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan va ijtimoiy munosabatlarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi. Kelajak poydevori bo‘lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta’lim muassasalarining ahamiyati kattadir. Bu o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ushbu hujjatlar mohiyatiga ko‘ra uzluksiz ta’lim tizimining shakllanganligi ta’lim-tarbiya asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Eng avvalo tizimni huquqiy me’yoriy bazasi mustahkamlanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori fikrimiz dalilidir.

Bundan ko‘rinadiki, maktabgacha ta’lim muassasasi oila va jamiyatning bolalarga g‘amho‘rlik qilish, milliy va mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda har tomonlama

barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga boʻlgan ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etiladi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama oʻstirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yoʻlida har tomonlama voyaga etkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yoʻnaltirilgan faoliyat jarayonidir.

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon boʻlib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli taʼsir etish imkonini beradi.

“Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar oʻrtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yoʻnaltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuygʻulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur boʻlgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil boʻladi”.[7]

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki his-tuygʻularini ham oʻstirib borish, unda jamiyatning shaxsga qoʻyadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun tarbiyalanuvchining ongi, hissiyoti va irodasiga taʼsir etib boriladi. Agar bularning birortasi eʼtibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga tarbiyachi rahbarlik qiladi. U tarbiyalanuvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyani samarali yoʻlga qoʻyish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat.

Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. Tarbiya maqsadining aniqligi. Oʻzbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalga oshirilishi koʻzda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻqrisida»gi Qonuni gʻoyalari koʻra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi boʻlgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yoʻlidagi asosiy vazifa – bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, yaʼni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

2. Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati. Tarbiyachilarning bolalar bilan maʼnaviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunasini izlash, shu asosida tarbiyachi ishining hayotiy meʼyor va qadriyatlarini aniqlash tarbiyalanuvchining tarbiya jarayonidagi faolligini taʼminlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali toʻla-toʻkis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari tarbiyaviy taʼsir kuchiga ega.

3. Oʻz-oʻzini anglash. Tarbiya insonda eʼtiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri – bu insonning hayotiy oʻz-oʻzini anglashi, uning oʻz shaxsiy hayoti va faoliyatining subʼekti sifatida eʼtirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy oʻz-oʻzini anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

4. Tarbiyaning shaxsga yoʻnaltirilganligi. Mazkur gʻoya taʼlim muassasasi

amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas. Balki tarbiyalanuvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o‘ziga xos xarakteri, o‘z qadr-qimmatini anglash tuyg‘ulari rivojlantirilib borilishi zarur.

5. Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g‘oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o‘zida ham tarbiyalanuvchi, ham tarbiyachi ma’naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi tarbiyalanuvchining qiziqishi, faoliyati, o‘rtoqlik va fuqarolik burchini anglash, mustaqillikka intilish tuyg‘ularini ko‘ra va anglay olsagina uning irodali ekanligi ayon bo‘ladi. Tarbiyalanuvchining irodali bo‘lishi ta’minlangan sharoitda uning shaxsiga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida samaraga erishiladi.

6. Jamoa yo‘nalishi. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsni har tomonlama kamoloti, uning dunyoni anglash, uni to‘laqonli talqin etish, insonparvarlik va o‘zaro hamkorlik tuyg‘ularini yuzaga kelishi va rivojlanib borishi kabi holat amalga oshiriladi.

4. Tarbiya qonuniyatlari. Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining o‘ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur vazifani amalga oshirishda ta’lim-muassasalari muhim soha hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya oldiga qo‘yilgan muhim maqsad ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta’lim-tarbiya mazmunini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish va uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashni nazarda tutadi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu-istaklari, e’tiqodi, axloq qoidalarini o‘zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma’naviy boyluk bo‘lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi.

Yana bir muhim masala – bolalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rgatishdir. Tariximizda axloqiy qadriyatlarning sarchashmalari uzoq-uzoq davrlarga borib taqaladi. Zardushtiylik ta’limoti islomning axloqiy tamoyillari xalq pedagogikasining axloq-odobga doir o‘g‘itlari ham tarbiya mezonlari bo‘lib hisoblanadi.

Yana bir muhim jihati bu inson omili masalasidir. Mazkur omil axloqiy va aqliy kamolot muammosidir. Ana shu omil vatan millat manfaatlarini bilan bog‘liq bo‘lib, insonda fidoiylilik, milliy iftixor tuyg‘ularini kamol toptiradi. Masalan, jadid ma’rifatparvarlari ana shunday insonlar bo‘lib, millat vatan manfaati uchun kurash, milliy iftixor tuyg‘usini o‘stirishda yoshlarga ibrat namunasidir.

Yosh avlodni qadriyatlar asosida tarbiyalashni yana bir muhim jihati – bu ularni mehnat qilishga, ishbilarmonlikka o‘rgatishda adolatlilik, e’tiqodlilikni tarkib toptirishdir. Bu Vatan, xalq manfaati uchun fidoiylilik ko‘rsatishda eng muhim fazilatlar bo‘lib hisoblanadi.

1. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonidir. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi.

2. Tarbiya qonuniyatlari tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stirib borish, unda jamiyatning shaxsiga qo‘yadigan axloqiy talablariga

muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun tarbiyalanuvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga tarbiyachi rahbarlik qiladi.

Ushbu maqolani yozish jaroyonida quyidagi tavsiyalarni berishni joiz deb topdik: 1. “2017-2021 yillarda Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish Dasturi” talablaridan kelib chiqqan holda maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatida tarbiya qonuniyatlari va prinsiplaridan foydalanishda hamkorlik pedagogikasi (shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, tarbiya texnologiyalari) imkoniyatlaridan foydalanib tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiya qonuniyatlari va prinsiplaridan foydalanishda tashkilotda qulay, ijodiy, psixologik muhit yaratishga erishish va bu muhitda uning o’z imkoniyatlarini namoyon etishga yo’l ochish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-sonli “O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi Qarori.

4. Xasanboeva O. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. O`quv qo`llanma. 2007 yil.

5. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari.: Universitet, 1998,

6. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi //Oliy o‘quv yurtlari va universitetlar talabalari uchun o‘quv qo‘ll. – Toshkent, O‘qituvchi, 1996.

7. Jo`raeva B.D. Maktabgacha ta’limni modernizatsiyalash muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Xalq ta’limi j., 2008. 5-son. 115 b.